



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRINING BUYRUG‘I

№ 15

“08” 02 2022-yil

### **Qurilish vazirligida konfidensial ma’lumotlarni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 16-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining axborotlashtirish obyektlarida konfidensial axborotni tashkil etish va saqlash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 295-son qarorini ijroga qaratish maqsadida Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining 2015-yil 22-oktabrda 149-son buyrug‘i qabul qilingan.

Mazkur buyruq bilan, Qurilish vazirligida (*keyingi o‘rinlarda – “vazirlik” deb yuritiladi*) konfidensial ma’lumotlar toifasi tasdiqlanmaganligi, vazirlikda axborot xavfsizligini ta’minlash, konfidensial toifaga kiritilgan ma’lumotlarni cheklangan doirada foydalanish zarurati yuzaga kelganligi hamda konfidensial toifaga kiritilgan ma’lumotlardan qonunchilikda belgilangan tartibda foydalanish maqsadida

### **BUYURAMAN:**

1. Quyidagilar vazirlikining axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha konfidensial ma’lumotlar hisoblanadi:

jismoniy va yuridik shaxslarning shaxsiy ma’lumotlari to‘g‘risidagi axborotlar;  
jismoniy va yuridik shaxslarning shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi axborotlar, shuningdek uning shaxsiy hayoti sirini ochuvchi axborotlar qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno;

axborot manbai yoki taxallus bilan imzo chekkan muallif to‘g‘risidagi axborotlar, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno;

yo‘zishmalar, telefon so‘zlashuvlar, qonun hujjatlariga muvofiq axborot olish cheklangan telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali uzatiladigan pochta, telegraf xabarlar va boshqa xabarlar siri to‘g‘risidagi axborotlar;

qonun hujjatlariga muvofiq axborot olish cheklangan tergov va sud yurituvchi siri hisoblangan ma’lumotlar;

qonun hujjatlariga muvofiq axborot egasi axborot olishni cheklangan xizmatiga doir ma’lumotlar;

qonun hujjatlariga muvofiq axborot olish cheklangan tijorat siri hisoblangan ma'lumotlar;

qonun hujjatlariga muvofiq axborot olish cheklangan bank siri, shaxsning sug'urtalash va vasiyat siri;

qonun hujjatlariga muvofiq axborot olish cheklangan (vrachlik siri, notarial harakatlar, advokatlik siri va boshqalar) kasb faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar;

ixtiro, foydali model yoki sanoat namunasining mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar, ular haqidagi ma'lumotlar rasmiy tarzda e'lon qilingunga qadar;

yuqorida ko'rsatilmagan, lekin boshqa qonunchilik hujjatlarida qayd etilgan konfidensial tUSDagi ma'lumotlar ham konfidensial ma'lumotlar hisoblanadi.

2. Vazirlikning boshqarma va bo'limlari ushbu buyruq talablariga qat'iy rioya qilinishi ta'minlasin.

3. Vazirlik devonxonasi (G.Otaboyeva) mazkur buyruqni vazirlikning markaziy apparati va uning hududiy boshqarmalari hamda tarkibdagi barcha tashkilotlarga yetkazilishini ta'minlasin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari D.Adilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



B.Zakirov

Buyruq № 15

2022 yil «08» 02

uzroq  
gare  
Saha

1. Vazirlik Markaziy apparati
2. Qoraqolpog‘iston Respublikasi Qurilish vazirligi, Hududiy boshqarmalar va vazirlik tarkibidagi tashkilotlar.

**Axborot tizimlari va  
raqamli texnologiyalar  
bo‘limi boshlig‘i**



**M.Zagrutdinov**